

**BUXORO AMIRI AMIR NASRULLONING SIYOSIY FAOLIYATI
MAHALLIY VA HORIJY MANBALAR ASOSIDA**

*Toshkent Kimyo Xalqaro
Universiteti Namangan filiali talabasi
No'monov Kamronbek Kozimjon o'g'li
kamronbeknomonov76@gmail.com,
+998 91 054 14 06
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Namangan filiali talabasi
Azamatova Rayhona Bahromjon qizi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning birinchi yarmi va o'rtalarida Buxoro amirligini boshqargan Amir Nasrullohning siyosiy faoliyati, uning shaxsiyati hamda davrning murakkab geosiyosiy jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda birlamchi manbalar – Ahmad Donishning “Risola yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya” asari va Joseph Wolffning “Narrative of a Mission to Bukhara” kitobi asosida Amir Nasrullohning hukmronlik davridagi ichki va tashqi siyosiy voqealar yoritilgan. Shuningdek, ikkilamchi manbalar – zamonaviy tarixshunoslik asarlari orqali uning faoliyati turlicha baholanganligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Maqolada, xususan, ingliz elchilari Charles Stoddart va Arthur Conolly bilan bog‘liq voqealar tahlil qilinib, bu hodisalarning “Buyuk o‘yin” doirasida Buxoro amirligi obro‘sig‘a ta’siri yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Amir Nasrulloh bir tomondan markazlashuv va davlat barqarorligini ta’minlashga intilgan hukmdor bo‘lsa, boshqa tomondan, uning shafqatsiz siyosati hamda xalqaro maydondagi keskin qarorlari amirlikning tashqi aloqalarida muammolarga sabab bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: Amir Nasrulloh, Buxoro amirligi, Buyuk o‘yin, Rossiya, Buyuk Britaniya, Charles Stoddart, Arthur Conolly, Joseph Wolff, Viktoriya, Buxoro, Qo‘qon, Xiva.

Abstract. This article examines the political activities, personality, and the complex geopolitical processes of the first half and mid-19th century during the reign of Amir Nasrulloh, the ruler of the Bukhara Emirate. The study relies on primary sources such as Ahmad Donish’s “Risola yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya” and Joseph Wolff’s “Narrative of a Mission to Bukhara”, which shed light on the internal and external political developments of the period. In addition, secondary sources – modern historiographical works – are analyzed to demonstrate the diverse interpretations of his rule.

The article particularly focuses on the incidents involving the British envoys Charles Stoddart and Arthur Conolly, highlighting their impact on the international

image of the Bukhara Emirate within the framework of the “Great Game.” The findings suggest that Amir Nasrulloh, on the one hand, sought to centralize power and ensure state stability, while on the other hand, his harsh policies and sharp decisions in foreign affairs created significant challenges for the emirate’s external relations.

Keywords: Amir Nasrulloh, Bukhara Emirate, Great Game, Russia, Great Britain, Charles Stoddart, Arthur Conolly, Joseph Wolff, Queen Victoria, Bukhara, Kokand, Khiva.

KIRISH

XIX asr o‘rtalarida Amir Nasrullohning hukumronlik davrida Markaziy Osiyo xalqaro siyosiy kurash maydoniga aylandi. Bu davrda ruslarning mintaqani bosib olishga bo‘lgan qiziqishi tobora kuchayib bordi. Mazkur davrda inglizlar bu jarayonga qarshi turishga harakat qilib, o‘z manfaatlarini himoya qilishga intildilar. Bu davir tarixga “Buyuk o‘yin” yoki “Katta o‘yin” nomi bilan muhirlandi. Chunki Markaziy Osiyo har ikki imperiya uchun ham geostrategik jihatdan o‘ta muhim hudud edi. Mazkur hududni bosib olishdan **ruslarning asosiy ko‘zlagan maqsadi** shundaki: O‘rta Osiyoni o‘z hukmronligi ostiga olish, janubga yo‘l ochish hamda tabiiy resuslarga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortishi bo‘lgan bo‘lsa, **inglizlarning maqsadi** – bu kengashni to‘xtatish va o‘z mustamlaka siyosatini himoya qilish edi. Ayniqsa, inglizlar uchun eng muhim sabab – Hindiston edi. Chunki o‘sha paytda Hindiston Britaniya imperiyasining eng yirik va eng qimmatbaho mulklaridan biri hisoblangan. Agar Rossiya O‘rta Osiyoni zabt etsa Hindiston xavf ostida qolishi mumkin edi.

Amir Nasrulloh hukmronligi davrida bu geosiyosiy ziddiyatlar Buxoro amirligi siyosatiga ham bevosita ta’sir qildi. Chunki inglizlar Buxoro va qo‘shni xonliklarni Rossiya oldida muayyan darajada birlashtirishni istar edilar. Agar bu muvaffaqiyatli amalga oshganida, inglizlar Yaqin Sharqda ham qudratli hamkorlarga ega bo‘lishlari va ularning yordami bilan Rossiyaga qarshi kurashish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lar edilar. Shunday qilib, Amir Nasrulloh faoliyat yuritgan davr – nafaqat ichki siyosiy intriga va markazlashuv jarayonlari, balki Buyuk Britaniya va Rossiya o‘rtasidagi global geosiyosiy kurashning Markaziy Osiyo hududida keskinlashgan davri bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur davrga oid bir qator manba va adabiyotlar mavjud bo‘lib, ularni birlamchi va ikkilamchi manbalarga **ajratib olsak.**

Birlamchi manbalar

Ahmad Donishning *“Risola yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya”* asari (Mang‘itlar xonodoni saltanatining qisqacha tarixi) asar muallifi Ahmad Donish 1850-yildan to 1897-yilga qadar mang‘it amirlariga hizmat qilib kela boshlagan. O‘zining mazkur asarida Buxoro amirligi mang‘it hukmdorlari tarixini ichki nuqtai nazardan bayon qilgan. Muallif saroy hayoti, mansablar tartibi,

diplomatiya va odatlarni yaxshi bilganligi uchun ichki tafsilotlarni aniq yozib bergan. Shu bilan birga, asarda biz olib borgan tadqiqotimizning asosiy shaxsi Amir Nasrullohxon haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Unda Amir Nasrullohxonning taxtga chiqishi va Buxoro amirligining Rossiya ekspansiya tasiriga aylangina qadar tarixi yozilgan. Shu sababli Ahmad Donishning bergan faktlar tarixiy manba sifatida qimmatli. Biroq mening fikrimcha uning talqinlari tanqidiy solishtirishni talab qiladi. Sababi Amir Nasrulloh haqidagi ayrim ma'lumotlar bo'rtirib yuborilgan.

Amir Nasrullohning hayotiy faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi xorijiy manbalardan biri bu 1845-yil AQShning New York shahrida Joseph Wolff (Joseph Wolf) muallifligida chop ettirilgan *“Narrative of Mission to Bukhara in 1843-1845 years, to ascertain The Fate of Colonel Charles Stoddart and Captain Conolly”* [1] asari mazkur mavzuni yoritishda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy manbalardan biri sanaladi. Mazkur asar 28 bob, 384 ta sahifadan iborat bo'lib, asar muallifi Joseph Wolff 1844-yilda Buxoro amirligida bo'lgan va ingliz mahbuslari: kapitan Conolly va polkovnik Charles Stoddartning ayanchli taqdirini o'rgangan. Shu asnoda u amirlikning harbiy holati va to'pchiboshi tabrizlik bo'lgan Abdulsamudxon haqida muhim ma'lumotlarni qayd etadi.

Ikkilamchi manbalar

“Vatan tarixi” II kitobi mualliflari R. Shamsutdinov, Sh Karimov, va O'. Ubaydullayevlarning Vatanimiz tarixi II o'quv qo'llanmasida Buxoro amirligi XIX asr tarixi, xususan Amir Nasrullohxon faoliyati haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Asarda Nasrullohxonning taxtga chiqishi, fitna va qo'zg'olonlarni bostirishi hamda davlatni markazlashtirishga intilishi haqida yozilgan. Muallif uni qat'iyatli, kuchli irodaga ega, lekin shu bilan birga shafqatsiz hukmdor sifatida talqin etadi. R. Shamsutdinov, Sh Karimov, va O'. Ubaydullayevlarning talqinlari Amir Nasrullohxon siyosatini ichki siyosiy vaziyat barqarorlashtirilishi nuqtai nazaridan yoritadi. Shu bois, bu asarda berilgan ma'lumotlar tarixiy manba sifatida muhimdir. Biroq ayrim o'rinlarda hukmdorning siyosiy faoliyati bir tomonlama – davlatni mustahkamlashga qaratilgan ijobiy jihatlar orqali talqin qilinganligi sababli, tanqidiy solishtirishni talab qiladi.

“O'zbekiston tarixi” II kitobi mualliflari B.J. Eshonov va A.A. Odilov Amir Nasrullohxon faoliyatini yanada keskinroq baholaydilar. Ularning asarida Nasrullohxon hokimiyatni mustahkamlash yo'lida qarindoshlari va raqiblarini qatl ettirgani, qattiq qo'llilik bilan davlatni boshqargani qayd etiladi. Shuningdek, mualliflar Nasrullohxonning tashqi siyosatda ehtiyotkor bo'lganini, Rossiya va Angliya o'rtasidagi ziddiyatlardan foydalanishga intilganini ham alohida ta'kidlaydilar. Asarda Nasrullohxon ko'proq shafqatsiz hukmdor sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun bu manba uning hukmdor sifatidagi obrazini tanqidiy solishtirish orqali

ko‘rib chiqishni talab qiladi. Chunki ayrim talqinlarda uning shaxsiy fazilatlari bo‘rttirib ko‘rsatilgan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tarixda ma‘lumki 1756-yil Muhammad Rahimbiy Buxoro taxtiga o‘tirishi bilan davlat amirlik maqomida yuritila boshladi [2]. Shu yildan boshlab Buxoroda mang‘itlar sulolasi hukmronlik qildi. Biroq mang‘itlar avvalgi sulolalarga nisbatan murakkab siyosiy sharoit va chigalliklarga duch kelgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hususan Amir Nasrullohning hukumdorlik faoliyati bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Mohir diplomat va tarixchi Ahmad Donishning *“Risola yo muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang‘itiya”* (Mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi) asarida Amir Nasrullohxoning Buxoro taxtini egallashini quydagicha tariflaydi: Amir Nasrullohning otasi Amir Haydar hijriy 1242-yil (millodiy 1826-yil 6-oktabr) kuni vafot etadi. Taxtga uning katta o‘g‘li Amir Xusayin o‘tiradi, biroq uning hukmronlik davri ikki oy va o‘n to‘rt kun davom etdi. Noma‘lum sabablarga ko‘ra Amir Xusayin halok bo‘ladi [3]. Shundan so‘ng taxtga Amir Nasrullohning yana bir akasi Amir Umar keladi. Uning ham hukmronlik davrib uzoqqa cho‘zilmaydi – atiga to‘rt oy [4]. Manbalarda Amir Umarni mamlakat boshqaruvida layoqatsiz hukumdor bo‘lgani, aysh-ishratga berilib ketgani hamda mast qiluvchi ichimliklarga berilib ketgani qayt etilgan. Ahmad Donish o‘z asarida ta’kidlashicha, mamlakatning parokanda bo‘lib ketishini oldini olish maqsadida Amir Nasrulloh taxtni akasidan kuch bilan tortib olgan. Amir Nasrullohning taxtni egallashi haqida manbalarda turlicha ma‘lumot beriladi. Xususan, 1826-yil Amir Nasrullohning taxtga chiqish sanasi sifatida ko‘plab manbalarda uchraydi. Biroq erkin tadqiqotchi sifatida biz tarixchilarning umumiy ma‘lumotlariga emas, balki Ahmad Donishning keltirgan ma‘lumotlariga ko‘proq ishonamiz. Ahmad Donish o‘z asarida Amir Nasrulloh mamlakat taxtini 1827-yilda egallaganini qayd etadi. Manbalarga ko‘ra, Amir Haydar hijriy 1242-yil (milodiy 1826-yil 6-oktabr) da vafot etgandan keyin katta o‘g‘li Amir Xusayin ikki oy o‘n to‘rt kun hukmronlik qilgan, so‘ngra Amir Umar to‘rt oy taxtda bo‘lgan. Demak, bu davrni hisoblaganda, Nasrullohning hukmronlik boshlanishi 1826-yil emas, balki 1827-yilga to‘g‘ri keladi [5]. Amir Nasrulloh tarixda shavqatsiz hamda qotil hukumdor yoki “qassob hukumdor” laqabi bilan qolgan. U 1827-yil taxtni egallashi bilanaoq mamlakatni sotiq va hoyinlardan tozalashni boshlaydi xattoki ayrim ma‘lumotlarda hukumdor kuniga 50-100 nafar odamlarni o‘limga mahkum qilganliklari haqida ma‘lumotlar mavjud [6]. Amir Nasrullohning hukmronlik davrida ingliz elchisi Charles Stoddart 1838-yil amir Nasrulloh huzuriga tashrif buyuradi. Mazkur uchrashudan ko‘zlangan asosiy maqsad shundaki Buyuk Britaniya Qirolicha Viktoriya tomonidan unga yuklatilgan missiyani bajarish edi. Mazkur missiya shundan iboratki Buxoroda qul savdosini bekor qilish hamda Buxoroni Rossiya bosqinidan himoya etishda inglizlarning yordamini qabul qilish taklifiga Amir Nasrullohni ko‘ndirish edi.

Biroq Amir Nasrulloh inglizlardan kelgan maktubda qirolichaning muhri mavjud emasligini ko'rib, uni soxta hujjat deb hisoblagan. Bundantashqari Charles Stoddart ogohlantirilishiga qaramay hukmdor huzuriga otda kirib unga nisbata hurmatsizlik qilgan [7]. Shu bilan birga qirolicha Viktoriya tomonidan Amir Nasrullo Buxoroni Turkistonning siyosiy markazi va asosiy hukmdori sifatida tan olishni, Xiva va Qo'qon ustidan siyosiy ustuvorlikni tasdiqlovchi maktubni to'rt oyda kelishini vada qilgan. Biroq o'n to'rt oyda ham maktub kelmagan. Amir Nasrullohning buyurug'i bilan Charles Stoddart qammoqqa olingan [8]. Buyuk Britaniya hukumati Charles Stoddartdan uzoq vaqt xabar kelmagach, uning taqdirini aniqlash maqsadida kapitan Captan Conolly Markaziy Osiyoga yuboradi. Conolly 1841 yilda Xivaga borib, Olloqulixon bilan uchrashadi. U qirolicha nomidan qul savdosini bekor qilish va ruslarga qarshi bo'lg'usi urushda xonliklarni inglizlar bilan ittifoq tuzishga da'vat qiladi. Biroq Olloqulixon ham bu taklifni rad etadi. Chunki Buxoro va Xiva xonliklarida qul savdosi xazina daromadining muhim manbalaridan biri edi. Mazkur yilning noyabr oyida Conolly Buxoroga yetib keladi. Uni Stoddartning o'zi kutib olib, Amir Nasrullo huzuriga olib kiradi. Conolly o'zi bilan Hindiston general-gubernatori tomonidan yozilgan maktubni topshiradi. Biroq Amir Nasrulloh maktub qirolicha Viktoriya emas, balki general-gubernator tomonidan yozilganini bilib, bundan qattiq g'azablanadi [9]. U bu holni ingliz qirolichasining Buxoro amiriga nisbatan ikkinchi marta hurmatsizlik sifatida baholadi. Bu vaqt oralig'ida Charles Stoddart qamoqdagi qiynoqlardan qo'rqib musulmonlikni qabul qilgan edi. Buyuk Britaniya tomonidan hech qanday xabar yoki maktub kelmaganligi uchun Amir Nasrulloh Charles Stoddart va Conollyni qatil qilishga buyuruq beradi. Qatil etish paytida Charles Stoddart hech qanday musulmonlikni qabul qilmaganligini amirga aytishini soqchilardan iltimos qilgan [10]. 1943-yil Charles Stoddart va Conollydan habar olish maqsadida Joseph Wolff uzoq va mashaqqatli sayohatga chiqadi. 1944-yil Joseph Wolff Buxoroga yetib keladi. Charles Stoddart va Conollyning ayanchli taqdirini eshitgan Joseph Wolff amirga nisbatan yuksak hurmat va extiromda bo'lgan. Biroq Amir Nasrulloh barcha ingliz savdogarlarini qamoqqa tashlash buyurug'i sababli Joseph Wolff ham qamoqqa olingan. Fors shohi Muhammad shoh (1834-1848) Nasrulloga yuborgan maktub orqali uning hayoti saqlanib qolinadi. Wolff Buyuk Britaniyaga qaytganida o'z asarida Amir Nasrulloni shavqatsiz zolim ammo poraxo'rlika qarshi hukmdor sifatida tariflaydi. Ayrim manbalarda Nasrulloda Joseph Wolffga nisbatan hurmatda bo'lganligi aytiladi [11]. Sababi Joseph Wolff Buyuk Britaniyadan Markaziy osiyoga ikkita inson hayotini saqlab qolish uchun kelganligidan hayrata qolgan. Sababi shundaki o'sha davirda Amir Nasrulloni qo'l ostida 200 mingga yaqin Eronlik qullar bo'lgan va ulardan hechkim habar olmaganligi uchundir. Amir Nasrulloh hayotiy faoliyati davomida ko'plar janglarni ko'rgan ham mazkur janglarda ishtirok etgan qudratli hukmdor bo'lgan. Uning hukumdolik faoliyati davomida qilgan eng mashhur yurishlaridan bir bu 1842-

yil Qo'qonning bo'ysundirilishi hamda 1836-yildan boshlab to 1856-yilning so'ngiga qadar Shahrisabz va Kitobga qilgan yurishlari hisoblanadi [12].

XULOSA

XIX asrning birinchi yarmi va o'rtalarida Amir Nasrulloh hukmronligi Buxoro amirligi tarixida eng keskin burilish davrlaridan biri bo'ldi. Uning shaxsiyati hamda siyosiy faoliyati tarixiy manbalarda turlicha baholangan bo'lsa-da, u markaziy hokimiyatni mustahkamlash, bekliklar mustaqilligiga chek qo'yish hamda davlatning ichki barqarorligini ta'minlashga intilgan hukmdor sifatida tarixda o'rin oladi. Shu bilan birga, uning qattiqqo'l va shafqatsiz siyosati ko'plab ichki qarama-qarshiliklar va noroziliklarga sabab bo'ldi.

Amir Nasrulloh davrida Buxoro amirligi nafaqat ichki siyosiy intriga va markazlashuv jarayonlari bilan, balki tashqi geosiyosiy raqobatlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'ldi. Ayniqsa, "Buyuk o'yin" doirasida Rossiya va Buyuk Britaniya manfaatlarining to'qnashuvi Buxoro siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Nasrulloh bu raqobatni o'z foydasiga burishga intilgan bo'lsa-da, ikki imperiya o'rtasidagi kuchlar nisbatini hisobga olganda, uning tashqi siyosati ko'proq ehtiyotkorlik va muvozanatni saqlashga qaratilgan edi. Uning davrida ingliz elchilari Stoddart va Conolly bilan bog'liq voqealar Buxoro amirligini xalqaro maydonda keskin muhokamalarga sabab bo'ldi. Bu hodisa Amir Nasrullohning shafqatsiz hukmdor sifatidagi obrazini mustahkamlab yubordi. Shu tariqa, Amir Nasrulloh hukmronligi Buxoro amirligining siyosiy hayotida murakkab, qarama-qarshiliklarga boy davr bo'lib, u bir tomondan davlat markazlashuvi va ichki barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqaro maydondagi keskin raqobatlar va qattiqqo'l siyosati tufayli amirlikning keyingi zaiflashuviga ham zamin yaratdi. Uning faoliyati Markaziy Osiyo tarixida Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi global geosiyosiy kurash fonida ko'rilishi lozim bo'lgan alohida davr sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15478673>
2. 2 Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi II kitob, T., Sharq, 2010. – P. 81.
3. 3 Ahmad Donish. Risola yohud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi, T., Davlat ilmiy nashriyoti, 2014. – P. 31
4. 4 Eshonov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi II kitob, T., Donishmand Ziyosi, 2020. – P. 247-248.
5. 5 Ahmad Donish. Risola yohud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi, T., Davlat ilmiy nashriyoti, 2014. – P. 31-33
6. 6 Eshonov B. J., Odilov A. A. O'zbekiston tarixi II kitob, T., Donishmand Ziyosi, 2020. – P. 248.

7. 7 Joseph Wolf. Narrative of Mission to Bukhara in 1843-1845 years, to ascertain The Fate of Colonel Charles Stoddart and Captain Conolly. – New York: Harper & Brothers, 82 Cliff street, 1845. – P. 2.
8. Joseph Wolf. Narrative of Mission to Bukhara in 1843-1845 years, to ascertain The Fate of Colonel Charles Stoddart and Captain Conolly. – New York: Harper & Brothers, 82 Cliff street, 1845. – P. 248-250.
9. Ergashev B. Manbashunoslik va tarixshunoslik – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – P. 146.
10. Joseph Wolf. Narrative of Mission to Bukhara in 1843-1845 years, to ascertain The Fate of Colonel Charles Stoddart and Captain Conolly. – New York: Harper & Brothers, 82 Cliff street, 1845. – P. 248-250.
11. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15478673>
12. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi II kitob, T., Sharq, 2010. – P. 86-87.